

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Issiqxonalarda o‘stirilayotgan sitrus o‘simliklarning global iqlim o‘zgarish sharoitlariga mos abiotik omillarga chidamli, serhosil yangi nav va duragaylarini yaratish hamda ko‘rgazmali limonzor tashkil etish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - erkin chatishtirish asosida avvalgi yillarda yaratilgan limon duragaylarini seleksiyasi jarayonida bosqichma-bosqich qimmatli xo‘jalik belgi va xususiyatlari bo‘yicha o‘rganiladi; - Respublikamizning turli iqlim sharoitlariga mos, abiotik omillarga chidamli limonning yangi yaratilgan nav va duragaylarini morfo-biologik ko‘rsatkichlari, hosil ko‘rsatkichlari hamda biokimyoviy tarkibini o‘rganiladi. - limonning va laymning navlarida abiotik omillarga chidamlilik bilan bog‘lik miqdoriy belgilar lokuslarini (QTL/gen) xaritalash natijalari asosida DNK markerlar panelini ishlab chiqiladi; - tadqiqot obyektlari genomida qurg‘oqchilik stresslariga chidamlilik bilan genetik bog‘langan DNK lokuslarining mavjudligini tekshirish uchun PZR skrining amalga oshiriladi; - Tadqiqot obyektlarining qurg‘oqchilikka chidamliligi laboratoriya sharoitida aniqlanadi; - Molekulyar, fenologik va biokimyoviy tahlillar natijalariga ko‘ra laym va limonning nav va duragaylari orasidan abiotik omillarga chidamli, eksportbop hamda qayta ishlashga mos yangi nav va duragaylar genotiplari ajratib olinadi; - muhitning abiotik omillariga (issiqqa va sovuqqa) chidamli yuqori hosilli duragaylarni tanlab olinadi; - sitrus o‘simliklardan ekologik toza mahsulotlar olish uchun yaratilgan resurs tejamkor usul natijasida sitrus o‘simliklarni hosildorligining 15-20 s/ga ortishiga erishiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Qishloq xo‘jaligi vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus</i> / <i>Web of Science</i> ma‘lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi